



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING
QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi_t@exat.uz

2022 года «19» мая

176-8-120-Q/22

Хокимият Шурчинского района

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer maydoniga mulk huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom talablari asosida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer maydonlari vakolatli tashkilotlar bilan kelishilganligi hamda o‘tkazilgan muhokamasini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 21-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida, Sho‘rchi tuman hududidan “YERELEKTRON” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilgan ilovadagi jami 10 ta, 0,137 gektar bo‘sh yer uchastkalari tuman hokimligi nomiga mulk huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Shoʻrchi tuman hokimining oʻrinbosari A.Chulibayev, Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Shoʻrchi tuman filiali bilan birgalikda ushbu qarorga muvofiq Shoʻrchi tuman hokimligining yer uchastkalariga boʻlgan mulk huquqini belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazilishini taʼminlasin.

3. Shoʻrchi tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov)ga ushbu yer uchastkalarini maʼmuriy-hududiy joylashuvidan va balans hududidan kelib chiqqan holda ijara huquqining minimal qiymatini belgilasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Shoʻrchi tuman hokimining oʻrinbosari A.Chulibayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Xudoyberganov B.X

Sho'rchi tuman hokimining
2022 yil 19 maydagi
176-8-120-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Sho'rchi tumani Oynako'l, Joyilma, Baxshtepa mahallalari hududidagi bo'sh yer uchastkalari

№	Tuman	Mahalla	Maydoni (ga)	Yer uchastkasi raqami
1	Sho'rchi tumani	Oynako'l mahallasi	0,0145	P172222605875-3
2	Sho'rchi tumani	Oynako'l mahallasi	0,0124	P172222605875-4
3	Sho'rchi tumani	Baxshtepa mahallasi	0,01	P172222605879-10
4	Sho'rchi tumani	Baxshtepa mahallasi	0,0401	P172222605879-11
5	Sho'rchi tumani	Baxshtepa mahallasi	0,01	P172222605879-5
6	Sho'rchi tumani	Baxshtepa mahallasi	0,01	P172222605879-8
7	Sho'rchi tumani	Baxshtepa mahallasi	0,01	P172222605879-9
8	Sho'rchi tumani	Joyilma mahallasi	0,01	P172222605883-15
9	Sho'rchi tumani	Joyilma mahallasi	0,01	P172222605883-6
10	Sho'rchi tumani	Joyilma mahallasi	0,01	P172222605883-7
Jami			0,137	